

“FARHOD VA SHIRIN” NASHRLARI TADQIQI

Olimova Muxlisa Parmonovna

O‘zMU talabasi

olimovamuxlisa556@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xamsachilik an'anasi, Navoiy “Xamsa”sining tadqiq etilishi atroflicha o‘rganiladi. “Xamsa”, jumladan “Farhod va Shirin”ning bir qancha nashrlari asosida doston nusxalari orasidagi farqlar, kamchiliklar yoritib beriladi. Xamsachilikda zamon talabidan kelib chiqib yangicha yondashuvli tadqiqotlar olib borish lozimligi borasida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Xamsachilik, nusxa, matn tarixi, kulliyot, bosma.

Xamsachlik an'anasi Sharq adabiyotida buyuk shoir Xusrav Dehlaviy tomonidan boshlab berilgan va asrlar davomida go‘zal badiiyatli asarlar bilan boyib borgan dostonchilik shakli hisoblanadi. Nizomiy Ganjaviy kulliyotidan so‘ng Xusrav Dehlaviy, Jamoliy, Ashraf Marog‘iy, Jomiy, Navoiy kabi ijodkorlar shakllangan xamsachilik an'analariga munosib beshliklar yaratishadi. Aytishimiz joizki, Alisher Navoiy “Xamsa”si turkiy tilda yaratilgan ilk dostonlar kulliyoti edi. Navoiy bu dostonlar majmuyini yaratishga kirishish bilan katta ishni bo‘yniga olgan, chunki o‘scha davrda qalami tengsiz ustoz ijodkorlar darajasida, turkiy tilda “Xamsa” yaratish g‘oyat mas’uliyatli ish hisoblangan. Natijada bir-birini takrorlamaydigan, o‘ziga xos mazmun ko‘lamiga ega bo‘lgan asarlar dunyo yuzini ko‘radi. Ibrohim Haqqulov ta’biri bilan aytganda, “Xamsa” - so‘z o‘lkasi. Behisob ohang, rang, ma’no tovlanishlariga ega so‘z va poetik obrazlar vodiysi. Bunda Navoiy turkiy tildagi qanchadan-qancha so‘zlarni vaqt, zamon, inson, tarix oldida nihoyatda mas’ul jonli vosita timsoliga ko‘taradi, qanchadan-qancha poetik obrazlarning so‘lmas nihollarini kashf etadi. Navoiy “Xamsa”sida qo‘llagan timsollar, poetik obrazlarni o‘rganish, ularni mayjud mezonlar asosida tadqiq qilishga doir jiddiy izlanishlar o‘tgan asrning birinchi yarmidan boshlandi. 1938-yilda Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan bu jarayon, ayniqsa, avj oldi. Adibning turfa mavzudagi ijod namunalari bilan birga “Xamsa” kulliyoti ham davr nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda tadqiq qilindi, nashr ettirildi. “Xamsa”ning dastlabki nashri 1939-1940-yillarda nashr ettirilgan bo‘lsa, ikkinchi nashri 1947-yili S. Ayniy tomonidan tayyorlandi. Ikkinchi nashr qisqartirilgan, tushib qolgan qismlarning mazmuni nasrda berilganligi va tegishli izohlar bilan boyitilganligiga ko‘ra xarakterlidir. Navbatdagi nashr 1959-1960-yillarda P.

Shamsiyev tomonidan amalga oshiriladi. Shundan so‘ng bir necha bora “Alisher Navoiyning mukammal asarlari to‘plami” nashr ettiriladi va bu jildliklar ichida “Xamsa” dostonlari ham o‘rin olgan. Matnshunos olim Sh.Sirojiddinov: “Matn tarixini o‘rganish qo‘lyozma asarning mavjud nusxalarini qiyoslashdan boshlanadi”, - degani kabi beshlik tarkibidagi dostonlar turli yillardagi nashrlari bilan o‘zaro taqqoslanilsa, ular orasidagi farq namoyon bo‘ladi. Farqlar nisbatini o‘rganish uchun bevosita “Farhod va Shirin” dostoniga murojaat qilamiz. Dostonning 1957-yildagi nusxasi G‘afur G‘ulom tomonidan Shohmurod kotib yozgan va 1901-yilda Toshkentda Порцев matbaasida bositgan nusxasiga asoslanib tayyorlanilgan. Bu nusxa ham asl matnni, ham nasriy she’riy tabdilni o‘z ichiga oladi. G‘afur G‘ulom buni nashr ettirishda yana uchta to‘liq va to‘liq bo‘lmagan, nuqson siz va xatoliklarga boy manbalarni ham qiyoslab o‘rganadi. Keyingi nashr “Xamsa” dostonlarining kritik tekstlariga asoslanish bilan birga Abduljamil kotib va Sultonali Mashhadiy nusxalari hamda XVI asrdagi yana bir manbaga tayanilib 1960-yilda P. Shamsiyev tomonidan amalga oshiriladi. Navbatdagi bosma ham P. Shamsiyevga tegishli edi. Biroq buni avvalgisidan xarakterli xususiyati ommaviyligidadir. Mazkur nashr VI bobdan boshlanadi, chunki nashrga tayyorlovchi tomonidan asosiy qismga aloqasi bo‘lmagan, 7 ta bob olib tashlandi. Matn so‘ngida qo‘sishimcha izohlar ilova qilingan. Keyingi nashr 1975-yilda A. Hayitmetov tomonidan bir qancha to‘ldirishlar bilan G‘. G‘ulom amalga oshirgan nasriy bayonga asoslanib bosmadan chiqarildi. 1991-yilda atoqli navoiyshunos olima S. G‘aniyeva “Farhod va Shirin” dostonini P. Shamsiyev ilmiytanqidiy matniga izohlar bilan nashrga tayyorladi. Keyinchalik P. Shamsiyev ilmiytanqidiy matni asosida V. Rahmonov dostonni nashrga tayyorladi. Bu dostonning asl shakli bo‘lsa, G‘. G‘ulom matniga asoslanib A. Hayitmetov va V. Rahmonovlar dostonning nasriy ko‘rinishini tayyorlashadi hamda 2006-yili nashr ettirildi. 2020-yilda ham “Farhod va Shirin” oldingilaridan ko‘p farq qilmagan holda nashrdan chiqariladi. Oxirgi muvafaqqiyatlari nashrlardan biri sifatida 2021-yilda Manzar Abdulkayr tomonidan tabdil qilingan nusxani aytish o‘rinli. Bu nashr oldingilaridan mukammal, mufassal va aniq. E’tibor berilsa, ilk nashrlar nasriy bayoni G‘. G‘ulom matniga asoslanilgan edi va kamchiliklari, Sovet davri talablariga moslashtirilgan jihatlari ko‘plab topilardi. Chunonchi, Manzar Abdulkayr ta’kidlashicha, dostonning ilk yillardagi nashrida 476 bayt turli sabablarga ko‘ra tabdil etilmagan. Bularning aksariyatiga dahriy tusga ega sovet mafkurasi sabab bo‘lgan. Hatto bu davrda mutafakkirning ijod konsepsiysi aks etgan hamd, na’t, munojot qismlari nashrlarda aks ettirilmagan, ilk doston variantlarining VI bobdan boshlanganligi ham shundan. Dostondagi diniy-irfoniy, tasavvufiy mavzulardan esa butunlay chetlab o‘tilish kuzatiladi. Biroq professor N. Jabborov aytganidek, hazrat Alisher Navoiy lirik

devonlaridagi hamd va na't mazmunidagi she'rlarda muallif dunyoqarashining, ijod konsepsiyasining asoslari ifodalangan.

Xulosa o'mida ayta olamizki, "Xamsa"da XV asr adabiy traditsiyalariga ko'ra nazira elementlari bo'lsa ham, mazmun-mohiyat jihatidan u o'ziga xos yangi asardir. Navoiy har bir dostoni g'oyasini o'z davri ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy talablaridan kelib chiqib belgilaydi. Bu dostonlar yuzaki qaraganda bir xil obrazlar, an'anaviy syujet shakliga egadek ko'rinsa-da, ularda ko'tarilgan mavzu ko'lamiga, g'oyaviybadiiy xususiyatlarga ko'ra yangicha talqinlar bilan yondashilgan. Galdagi vazifalar mana shu dostonlar ifodalagan tub mohiyatni ochib berish ustida izlanish, qisqartirilgan, izohtalab nashrlarga oid jiddiy tadqiqotlar olib borish, Navoiy o'qiguchiga anglatmoqchi bo'lган ma'nolar borasida teran fikr yuritishdan iboratdir. Zamon talabidan kelib chiqqan holda o'tgan asrda noaniq, noto'rg'i sharhlangan asarlar ustida ishonchli manbalarga asoslangan holda izlanishlar olib borish maqsadga muofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Abdulkayyr M. Alisher Navoiy // "Farhod va Shirin", - Toshkent, - 2021
2. Mallayev N. "So'z san'atining gultoji", - Toshkent, - 1991
3. Qayumov A. Alisher Navoiy // "Xamsa"si (tadqiqotlar), Toshkent, - Fan – 1986
4. Rahmonov V., Hayitmetov A. "Farhod va Shirin", - Toshkent, - 2006
5. G'. G'ulom "Farhod va Shirin", Toshkent, - 1956
6. G'. G'ulom " Farhod va Shirin", Toshkent, - 1975
7. G'aniyeva S. "Farhod va Shirin", - Toshkent, - 1991)
8. Shamsiyev P. Alisher Navoiy // "Xamsa", Toshkent, - 1960
9. Shamsiyev P. "Farhod va Shirin", - Toshkent, - 1964